



INTERPRETATION OF FEMALE PSYCHOLOGY IN MODERN SHORT STORIES

Sobirova Dilduzakhon Odiljon qizi

Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (TashDOUTAU) Faculty of Philology, Master's Degree Student (2nd year), Specialization: Literary Theory

E-mail: dilfuzasobirova31@gmail.com. Phone: +998 90 932 23 02

Umida Rasulova

Scientific Supervisor: Doctor of Philological Sciences, Professor
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18345386>

ARTICLE INFO

Received: 16th January 2026

Accepted: 22nd January 2026

Online: 23rd January 2026

KEYWORDS

Female image, artistic psychologism, psychopoetics, loneliness syndrome, childlessness, existential mood.

ABSTRACT

The article analyzes the artistic interpretation of the female psyche in Zulfiya Qurolboy qizi's short story "The Victim of Loneliness", focusing on the psychological imagery employed by the author, the system of symbols, and issues of women's social and psychological isolation. In the portrayal of female characters, themes such as childlessness, inner fear, an independent yet lonely life philosophy, belated remorse, and psychological states preceding death are examined through an artistic and psychological lens.

ZAMONAVIY HIKOYALARDA AYOL RUHIYATI TALQINI

Sobirova Dilduzaxon Odiljon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU. Filalogiya fakulteti adabiyotshunoslik nazariyasi mutaxassisi 2-kurs magistranti

dilfuzasobirova31@gmail.com +998909322302

Umida Rasulova

Ilmiy rahbar: F.f.d., prof.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18345386>

ARTICLE INFO

Received: 16th January 2026

Accepted: 22nd January 2026

Online: 23rd January 2026

KEYWORDS

Ayol obrazi, badiiy psixologizm, psixopoetika, yolg'izlik sindromi, befarzandlik, ekzistensial kayfiyat.

ABSTRACT

Maqolada Zulfiya Qurolboy qizining "Yolg'izlik qurboni" hikoyasidagi ayol ruhiyatining badiiy talqini, yozuvchi qo'llagan psixologik tasvir vositalari, ramzlar tizimi tahlil qilinadi. Ayol qahramon tasvirida befarzandlik, ichki qo'rquv, mustaqil, ammo yolg'iz hayot falsafasi, kech anglangan pushaymonlik va o'lim oldidagi ruhiy holatlar badiiy-psixologik tahlil etiladi.

Zamonaviy o'zbek nasrida ayol ruhiyatini psixologik va ijtimoiy-falsafiy qatlamlarda tasvirlash tamoyili kuchayib bormoqda. Ayol obrazlari faqatgina "ona", "xotin", "beva" yoki "uy bekasi" kabi ijtimoiy vazifa bilan emas, balki murakkab ichki kechinmalar, qarama-qarshi hissiyotlar, shaxsiy tanlovlar va ularning oqibatlarini doirasida talqin etilmoqda. Bu borada zamonaviy o'zbek nasrida Zulfiya Qurolboy qizi alohida o'ringa ega.



“Zulfiya asosan anchayin oddiy odamlar, omadi chopmagan, ishi yurushmagan, nochor, taqdirning noravon yo‘llarida sarsonu sargardon kishilar obrazini yaratadi. U bunday holatlarning qanday qilib vujudga kelish sabablarini izlamaydi, o‘sha holatni aynan tasvirlash va o‘quvchining ko‘ziga ko‘rsatish bilan kifoyalanadi¹.

Adabiyotshunoslikdagi psixoanaliz shunday tadqiqot usuliki, unda badiiy asar ongsizlik psixologiyasi bilan birlikda talqin etiladi. Psixoanalizda badiiy ijod inson psixikasidagi qandaydir ongsiz, ongosti jarayonlaridan olingan impuls, inertsianing ramziy mahsuli sifatida qaraladi². Ushbu fikrlar tasdig‘i sifatida quyida Zulfiya Qurolboy qizining “Yolg‘izlik qurboni” hikoyasini tahlilga tortamiz. Adibning ushbu hikoyasi ayol ruhiyatidagi chigalliklar, harakterlar mahorat bilan yoritilgan asarlardan bo‘lib, unda befarzandlik, yolg‘izlik, jismoniy emas, ruhan majruhlik, oila va qarindoshchilik munosabatlaridagi sovuqlik, ayolning o‘z tanlovlarini oqlashga urinishi badiiy psixologizm asosida ochib beriladi. Hikoya matniga kirishdan avval yozuvchi tanlagan sarlavhaga diqqat qaratsak. “Yolg‘izlik” so‘zi o‘zbek tilining izohli lug‘atida “o‘zi bilan o‘zi bo‘lishlik, yakkalik; tanholik”¹ shaklida izohlanadi. Yolg‘izlik-- bu odamning boshqa kishilar bilan yoki jamiyat bilan aloqasi uzulganini his qilishi, ijtimoiy muloqotga ehtiyoj sezib, uni qondira olmasik holatidir. “Qurbon” so‘zi esa o‘zbek tilining izohli lug‘atida ko‘chma ma’noda qo‘llaniluvchi “ Tabiiy ofat, falokat, ko‘ngilsiz hodisa, kimsalarning qilmishi, manfaati va shu kabilar tufayli halok bo‘lgan yoki katta zarar ko‘rgan, qattiq aziyat chekkan kishi” ma’nosini izohlaydi. Ya’ni kimsasiz qolgan insonning shu kimsasizlik tufayli aziyat chekishi, halok bo‘lish holati sarlavha orqali ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki ijodkor shu ikki so‘zda hikoya qahramonining ayanchli qismatini hali hikoya o‘qilmasdan turib kitobxonga ma’lum ma’noda yetkazib bermoqda. Sarlavhaning o‘ziyoq kishini o‘yga toldiradi. Inson hayot ekan doimo jamiyat bilan, omma bilan muloqotda yashaydi, yaqinlari qurshovida yaxshi va yomon kunlarini o‘tkazadi. Bu holat insoniyatning qon-qoniga singib ketgan. Yolg‘iz qolish bu baxtdan, xursandchilikdan mahrum bo‘lish, hech kimsasiz qolish demakdir. Ammo masalaning ikkinchi tarafi ham bor. Inson odamlar orasida yashab turib, jamiyatdan uzilishi, yaqinlar davrasidan ajrab qolishi, yanada aniq qilib aytganda ichki olami, ruhiy dunyosini “kimsasiz orol”ga badarg‘a qilinishi naqadar ayanchli va murakkab holat. Bugungi kunda ana shunday “orol”larda yo‘l topolmay qurbon bo‘layotgan insonlar ham yo‘q emas oramizda. Ayol qalbini, uning og‘riqlarini ichdan his qilib, xato va kamchiliklarini hayotiy misollar bilan bog‘lagan holda adabiyot olamiga olib kirgan ijogkor Zulfiya Qurolboy qizi bu galgi hikoyasida yuqoridagi jihatlariga diqqat qaratishni maqsad qilib olgan.

Hikoya dastlab “Ulfat akaning o‘limidan keyin Tamara xola yolg‘izlanib qoldi...”³ satrlari yani o‘lim va yolg‘izlik tushunchalarini singdirish bilan boshlanadi. O‘lim bu dunyodan tamoman yo‘q bo‘lish, ketish. Yolg‘izlik ketganlarsiz (hayotimizda muhim o‘ringa ega odam ketsagina biz shu insonning yo‘qligini payqaymiz) qolish. Yozuvchi nega aynan hikoya qahramonining vafot etgan turmush o‘rtog‘iga Ulfat ismini tanladi? “Ulfat “

¹ Xurshid Do‘stmuhammad. Havas va ishonch. Z.Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2005. 4-bet.

² Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. G‘ofur G‘ulom. Toshkent. 2018. 362(181-b.)

³ <https://izoh.uz>



izohli lug'atda " Suhbat, ziyofat va shu kabilarda doimiy birga bo'ladigan kishilar birligi "sifatida izohlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ijodkor birgina ism orqali qahramonining hikoya davomida ulfatsiz ya'ni suhbatdoshsiz qolgani, buning natijasida qahramonda kechadigan ayanchli vaziyatlarga ishora qilmoqda.

Tamara xolaning ruhiy dunyosini tushunish uchun avvalo uning taqdir bitigini ko'rib chiqish zarur: Ulfat aka bilan qariyb qirq yil befarzand turmush kechiradi, singlisi bilan vaza voqeasi sabab uzilgan rishtalar, qayinsinglisi Dilara bilan murakkab munosabatlar, singlisining qizi Yasmina bilan poyoniga yetmagan ruhiy aloqalar. Oxir-oqibat uy, vaza, gullar va kalamushlar bilan yolg'iz qolgan ayol. Bularning barchasi hikoya sujetining tobora murakkablashib, obraz psixologiyasini ochib berishda muhim vazifalarni bajaradi. Yozuvchi ayol ruhiyatini tasvirlar ekan, ayolni faqat "jabrdiyda qurbon" emas, balki o'z tanlovlari bilan taqdirini shakllantirgan shaxs sifatida ko'rsatadi. Masalan: Diloraning o'g'lini farzandlikka olishdan Tamara xolaning o'zi bosh tortadi. Yetim Yasminani asrab olish imkoniyatida ham o'zining ichki g'ururi va ranjishlari sabab bu imkon qo'ldan ketadi. Yetimxonadan bola olish masalasida erining ikkilanib qolishi ustiga, u ham qat'iy qadam tashlamaydi. Shunday qilib, hikoyada ayolning fojeasi faqat jamiyat, qarindoshlar yoki "taqdir" aybi sifatida emas, balki shaxsiy qo'rquv, jur'atsizlik va moddiyat bilan ham bog'lanadi. Bu yozuvchining psixologik adolat tamoyilidir. Muallif qahramonni "ayblamaydi", lekin uni "mutlaqo oqlamaydi" ham. Ayol ruhiyatini hayotiy xatolar fonida ko'rsatadi.

Hikoya davomida Tamara xola o'zini va obdon oqlaydi: "Farzandlari ko'p bo'lganlar erta qariydi, azob chekadi." "Katta oilalar doim qarz, tashvish, asabiylik bilan yashaydi." "Yolg'iz yashasam ham xotirjamlik, osoyishtalik bor", "Men ko'p va sog'lom yashayman, Diloraga o'xshaganlar tez qariydi." Bu fikrlar psixologik nuqtayi nazardan rationalizatsiya (o'z tanlovlarini aql bilan oqlash) va kompensatsiya sifatida talqin qilinadi. Yozuvchi bu oqlashni kulgi yoki istehzo bilan emas, balki achchiq haqiqat va ichki qo'rquv aralash ohangda beradi. Tamara xolaning ichki monologlarida quyidagilar seziladi: "Men o'zimni aldamayapmanmi?" degan yashirin savol, "Mendan ko'ra boshqalar noto'g'ri yashayapti" degan ichki mudofaa, "Men ko'p yashashim kerak" degan hayotga yopishib olish istagi. Muallif bu ruhiy jarayonlarni ko'pincha ichki monolog, o'z-o'ziga murojaatlar, taqqoslashlar orqali ochadi. Masalan, Dilara oilasidagi tartibsizlik, janjal, bolalarning qo'pol muomalasi fonida Tamara xola o'z uyini yanada idealizatsiya qiladi. Bu yerda kontrast usuli ayol ruhiyatini ochishda samarali ishlatilgan.

Badiiy asarda har bir so'z shunchaki aytilmaydi, undagi asosiy maqsad so'zdan detalga, detalgan obrazga, obrazdan esa fikrga qarab o'sib, o'zlarining mazmun qatlamlarini bosqichma-bosqich kengaytirib boradi. Natijada oldimizda qahramon psixologiyasi, ichki ruhiyati haqidagi badiiy asar namoyon bo'ladi. Tadqiqotimizga yanada chuqurroq kirish uchun hikoyadagi ba'zi detallarga alohida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. Ikki xonalik uy: bir paytlar to'tiqush saqlanadigan "katalakday tor qafas", keyin "hayhotday huvillagan" bo'shliq, oxirida esa "tiriklay ko'milgan qabr"ga o'xshay boshlaydi. Bu metamorfosalar Tamara xolaning ichki holatidagi o'zgarishlarga mutanosib: Eri bor payt – tor, ammo "to'la" hayot. Eri o'lgach – keng, ammo "bo'sh" hayot. Yolg'izlik kuchaygach – hayot bo'shligining qabrga aylanishi. Yozuvchi uy tasvirini juda



tejamkor, ammo ma'nodor detallar bilan beradi: qulf, deraza, devor, yerto'la, pillapoya tovushlari, televizor, gullar, vazalar – bularning barchasi ayol ongidagi bo'shliq va yolg'izlikni aks ettiradi.

Vaza – befarzandlik va qadriyatlar ramzi. Singlisi bilan bo'lgan janjalning markazida vaza turadi. Bu vaza: er-xotinning ikki yil pul yig'ib olgan "orzu buyumi"; singlisi: "Bolani bir vaza bilan teng ko'ryapsizmi?" – deb ranjigan nuqta; Tamara xola uchun esa farzand o'rnini bosayotgan bir "qadrli buyum". Keyinroq bu motiv yana qaytadi. Yasmina bilan munosabatlarda, singlisining erta o'limida, jiyanining nazaridagi "vaza jarohati"da. Shu orqali yozuvchi ayol ruhiyatidagi narsa va inson qadri orasidagi chalkashlikni ko'rsatadi. Tamara xola insoniy munosabatlardan ko'ra buyumlar orqali ovunishni osonroq topadi. Bu befarzandlikning psixologik oqibati sifatida talqin etilishi mumkin.

Gullar va shamol – hayot va yo'qlik orasidagi ko'prik. Gullar bu hayot nishonasi, ko'ngil ovunchag'i, farzand ramzi sifatida talqin qilinadi (farzand jannatning rayhonlaridir). Tamara xola uchun aynan "farzand o'rnini bosadigan jonli mavjudotlar". Hikoyaning so'ngida kalamushlar o'lishi, gullar qurishi, uy bo'shab qolishi tasviri berilgan. Faqat derazadan kirib kelayotgan shamol qoladi – u "tumtaygan, mung'aygan ilohaning ruhi"ga o'xshatiladi. Bu shamol – yo'qlik, inson izining o'chishi va hayot bekor o'tib ketganini bildiruvchi yakuniy ramz.

Kalamushlar tizimi ramz, psixologik proeksiya va fojeaning kulminatsiyasidir. Hikoyada kalamushlar oddiy "iflos jonivorlar" emas, balki belgi, ishora ifodasi. Kalamushlar – yolg'izlikning timsoli. Avvaliga kalamushlar tunda chiyillab bezovta qiluvchi mavjudot, keyin Tamara xola ularga muloqot obyekti sifatida murojaat qiladi. Nihoyat ular bilan "suhbatlashadi", ularning "oilasini" tasavvur qiladi. Bu bosqichlar Tamara xolaning: real odamlar bilan muloqotdan uzilishi, hissiy ehtiyojlarini hayvonlarga ko'chirishini, ruhiy izolyatsiya darajasini ko'rsatadi. Kulrang kalamush – mehribon, sabrli, bolaparvar "ona" sifatida qabul qilinadi. Qora kalamush – ochko'z, o'zini o'ylaydigan, tavakkalchi "erkak" timsoliga aylantiriladi. Yozuvchi bu yerda kalamushlarni metaforik "oila modeli"ga aylantiradi va Tamara xola o'zining oilasiz hayotini ular orqali ichida qayta "qurib chiqadi".

"Bezbet daydilar" – jamiyatning yovvoyi tomoni. Yohud inson ichki dunyosini mahv qiluvchi salbiy illat sifatida qarasak ham o'rinli bo'ladi. Keyinchalik kelgan "begona kalamushlar to'dasi"ga Tamara xola "bezbet daydilar" deb nom qo'yadi. Ular tamagir, yirtqich, tartibsiz, boshqa kalamushlar bolalarini ham yeb qo'yadigan "yovuz kuch". Bu obrazlar jamiyatdagi rahmsizlik, shafqatsizlik, kuchli-kuchsizni yutadigan ijtimoiy muhit timsoli sifatida o'qilishi mumkin. Oxir-oqibat Tamara xolani butkul yolg'iz qolgan chog'ida o'sha "bezbet daydilar" xomtalash qila boshlaydi. Bu – nafaqat jismoniy o'lim sahnasi, balki umr bo'yi uni kemirgan yolg'izlikning yakuniy metaforik ifodasi.

Kalamushlar bilan suhbat – ruhiy buzilishmi yo ichki faryodmi? Tamara xolaning kalamushlarga: "Sen mendan baxtli ekansan, bolalaring bor", "Ering qayoqda?", "Bolalaringni qanday boqasan?" degan murojaatlari tashqi tomondan qaraganda telbalik alomatiga o'xshaydi. Lekin psixologik talqinda bu suhbatga chanqoqlik, o'zini ko'rishga, anglashga urinish, ichki ziddiyatlarining tashqi "ekrani" desak mubolag'a bo'lmaydi.



Muallif bu holatni masxara tarzida emas, fojiali rahm va og'riq bilan tasvirlaydi. O'quvchi kulmaydi, balki bezovta bo'ladi.

Hikoyadagi oila, farzand, mulk va axloqiy tanlovlar ayol ruhiyatidagi tugunlardir. Hikoya davomida ayol ruhiyati bir nechta axloqiy tugunlar atrofida murakkablashadi. Masalan, Dilara bilan qiyoslanganda: Dilara ko'p bolali, mehnatkash, qo'pol, ammo hayot bilan bevosita to'qnashib yashaydigan ayol. Tamara xola uning oshxonadagi tartibsizligi, bolalarning behurmatligi, ko'cha-idoralardagi janjallaridan jirkanadi, o'zining "tinch, saranjom, osoyishta" hayotini afzal ko'radi. Ammo aynan shu uyda bolalarning kutilmagan mehribonligi (Asadbekning boshini uqalashi), ham janjal, ham bir-biriga bog'liq hayotning harorati bor. Yozuvchi bu qarama-qarshilik orqali ayolning farzand va tartib o'rtasida ong ostida qilgan tanlovini ko'rsatadi. Tamara xolaning "tartibli, sokin, saranjom, ammo sovuq" hayoti Dilara uyidagi "tartibsiz, ammo tirik" hayot bilan zid qo'yiladi.

Vaza voqeasi bir tomondan Tamara xolaning buyumlarga haddan tashqari bog'liqligini, ikkinchi tomondan singlisining "bola – buyumdan ustun" dunyoqarashini ko'rsatadi. Keyinchalik Yasmina onasi o'limidan keyin hayotga tik qaragan, oila qurgan, onalik baxtini tatib ko'rayotgan ayol sifatida tasvirlanadi. Tamara xola esa ularning oldiga kech kelgan, ruhiy jihatdan "ortiqcha odam" bo'lib qoladi. Yasminaning ko'zlaridagi nafrat, gina va so'nggi so'zlari Tamara xolaning nafaqat o'tmishdagi qarorlari, balki bugungi ruhiy holatini ham sud qiluvchi ichki ayblov sifatida o'qiladi.

Yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatlari psixologik yondashuvdagi ichki monolog usulida namoyon bo'ladi. Hikoyaning katta qismi Tamara xolaning monologi, o'z-o'zini oqlashi, o'zgalarning hayotini baholashi orqali rivojlanadi. Bu yerda yozuvchi erkin bilvosita nutq, ong oqimi unsurlarini tabiiy uyg'unlashtiradi. O'quvchi ko'pincha voqeani emas, balki voqeaning Tamara xolaning ongida qanday aks etishini ko'radi. Bu – badiiy psixologizmning tipik belgisidir.

Yozuvchi ayrim joylarda yumshoq, ayrim joylarda achchiq kinoyalardan foydalanadi. Masalan, Tamara xolaning: "Men ellik–oltmish yil yashayman", "Yangi asr o'rtalarida ham yuraman", "Diloraga o'xshaganlar ko'karib ketadi" – degan iddaolari keyingi fojeali yakun bilan kontrast hosil qilib, ichki tragik kesatiq yaratadi. Bu qahramonni kulgiga qoldirmaydi, aksincha, uning o'zini aldaganini, haqiqat bilan yuzlashishdan qochayotganini ko'rsatadi.

Hikoyada ishlatilgan har bir detal deyarli ramziy yuklamaga ega: vaza – buyumga bog'liqlik, befarzandlikni buyum bilan to'ldirishga urinishi; gul – hayot davomiyligi, umid, farzand; kalamush – yolg'izlik, ichki yemirilish, bo'rttirilgan psixik holat; shamol – yo'qlik, izning o'chishi; margimush – kech kelgan adolat, dahshatli "tozalanish". Zulfiya Qurolboy qizi bu detallarni haddan tashqari "shior" qilib ko'tarmaydi, ularni voqeaning tabiiy tarkibiy qismi sifatida beradi, lekin ularni bir-biriga zanjir qilib bog'lagan o'quvchi uchun chuqur ma'no ochiladi.

Asarning kulminatsion nuqtasi – Tamara xolaning kalamushlar tomonidan tiriklay yemirilishi sahnasidir. Bu sahna naturalistik tafsilotlar bilan bo'rttirib berilmaydi, lekin ruhiy dahshat tomoni kuchli. Tamara xola avval tanasining ayrim joylariga tish botganini sezadi, keyin shuur "yarq" etib, hayotining mazmunini savol ostiga qo'yadi, "Nahot men



shuncha yil kalamushlarga yem bo'lish uchun yashagan bo'lsam?" degan fikrga keladi. "Yolg'izlikka yem bo'ldim" degan hukmni chiqaradi. Bu yerda kalamushlar – bevosita qonxo'r jonivorlar emas, balki umr bo'yi uni kemirgan yolg'izlik, qo'rquv, jur'atsizlik, o'zini oqlash mexanizmlarining badiiy niqobidir. O'g'ring kelishi, uyning talanishi, margimush tashlanishi, gullarning qurishi – bularning barchasi insonga bog'liq bo'lmagan tashqi kuchlarning beparvoligini, jamiyatning "yolg'iz ayol"ga nisbatan e'tiborsizligini, mavjudlikning oxirgi nuqtada "yo'qlik"ka aylanishini ko'rsatadi. Faqat shamol qoladi. Ya'ni ruhiy iztiroblar, javobsiz savollar, bo'sh qolgan xonada kezayotgan noma'lum kuch. Shu tariqa "yolg'izlik qurboni" atamasi faqat Tamara xola shaxsiga emas, balki ma'lum ma'noda jamiyatdagi ko'plab ajralgan, qari, befarzand, e'tiborsiz ayollar taqdiriga ko'gu bo'lib ketadi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Zulfiya Qurolboy qizining "Yolg'izlik qurboni" hikoyasi ayol ruhiyatini chuqur psixologik qatlamlarda yoritgan asar sifatida o'zbek nasrida alohida o'rin tutadi. Tamara xola obrazi befarzandlik, o'zini oqlash, yolg'izlikni ongli tanlash va undan aziyat chekishi, qarindoshlik rishtalarining uzilishi, buyumlar va jonivorlar bilan o'rnini to'ldirishga urinish kabi murakkab ruhiy jarayonlar orqali badiiy talqin etiladi. Yozuvchi ichki monolog, ramziylik va detal, kinoyali, shu bilan birga rahmdil bayon uslubi, kalamushlar tizimi orqali ayol ruhiyatining chuqur qatlamlariga kirib boradi. Tamara xola nafaqat bir ayol taqdiri, balki o'zining xatolarini juda kech anglaydigan, yolg'izlikni "qulay hayot" deb oqlab kelgan, ammo nihoyatida aynan o'sha yolg'izlikning qurboniga aylangan ko'plab shaxslar timsoli sifatida ham qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga adibaning, aslida, inson tirikligi, mavjudligi, uning baxt hissini to'liq tuyushida va farzandlariga to'g'ri tarbiya berish bilan inson hayotini ma'lum ma'noda davom ettira olishi haqidagi hayotiy maslagini ham anglashimiz mumkin. Bu hikoya ayol ruhiyati talqini hozirgi o'zbek nasrida psixopoetik yondashuv, gender jihatdan tahlil, keksalik va yolg'izlik holati nuqtayi nazaridan alohida o'rganishga arziydi.

References:

1. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. G'ofur G'ulom. Toshkent. 2018. 362(181-b.)
2. Jo'rayeva Manzura. Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi (Abduqayum Yo'ldoshev va Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalari asosida). Farg'ona. 2018.
3. Zulfiya Qurolboy qizi. Yovuzlik farishtasi. Toshkent. Yangi asr avlodi. 2005. 4-bet.)
4. Zulfiya Qurolboy qizi. Ayol. G'ofur G'ulom. Toshkent. 2019.
5. <https://izoh.uz>
6. <https://n.ziyouz.com>